XALQ DEPUTATLARI URGUT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 17-fevral VII-5-22-7-105-K/25 Urgut tumani

Xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining 2024-yil 7-avgustdagi “Urgut tuman mahalliy budjetining 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida”gi VI-145-90-7-105-Q/24-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Urgut tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalar hisobidan shakllangan mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining navbatdagi yettinchi chaqiriq uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining 2024-yil 7-avgustdagi VI-145-90-7-105-Q/24-sonli qarori 1-ilovasining 3-bandi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

Ilovaning 3-bandida ko‘rsatilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tuman mahalliy budjetining 2024-yil 2-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan tumandagi ichki yo‘llarni shag‘allashtirishda harakatlanayotgan texnikalarga 20 tonna dizel yoqilg‘isi olish uchun 200 000,0 (ikki yuz million) ming so‘m mablag‘ ajratilsin so‘zlari “tuman Obodonlashtirish boshqarmasining iqtisod qilingan mablag‘lari hisobidan tumandagi ichki yo‘llarni shag‘allashtirishda harakatlanayotgan texnikalarga 20 tonna dizel yoqilg‘isi olish uchun 200 000,0 (ikki yuz million) ming so‘m mablag‘ ajratilsin” so‘zlari bilan bayon qilinsin.

2. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Urgut tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (O.Azimurodov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (U.Kamolov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



XUDAYKULOV
SHERALI
UMIRZAKOVICH

Xalq deputatlari Urgut tumani Kengashining
2025-yil 17-fevraldagi
VII-5-22-7-105-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Samarqand viloyati Urgut tumani mahalliy budjetidan mablag‘ oluvchi tashkilotning "DMBAT" dasturidagi yuridik majburiyatni
ro‘yxatga olish so‘rovnomasi bo‘yicha to‘lovni bir shaxsiy hisobvaraq (ShHV)dan boshqa ShHVga ko‘chirish yuzasidan
T A K L I F

so‘mda

Xarajat qilingan so‘rovnoma							Xarajat qilingan tulov topshiriqnoma				Taklif		Izoh (xarajat moddasi)
№	Tashkilot nomi	Shartnoma, So‘rovnoma ID	Regist. Raqami	So‘rovnoma summasi	Oluvchi	INN	ID raqami	Raqami	Sanasi	Summasi	So‘rovnoma va tulov topshiriqnomasining ShXR o‘zgartirish		
											Xarajat qilingan ShXR	Tug‘irlanishi kerak ShXR	
A	B	V	G	D	Ye	J	Z	I	K	L	M	N	
1	Urgut tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	35291195	2854	199 980 000,00	Urgut tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	200784412	765829103	0604600457	06,09,2024	199 980 000,00	10002286018236 7065200084008	10002286018236 7065200084001	4252500
	Urgut tuman bo‘yicha jami	**x**	**x**	**199 980 000,00**	**x**	**x**	**x**	**x**	**x**	**199 980 000,00**	**x**	**x**	**x**